

CHET TILI O'QITISH JARAYONIDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Aslonova Sevinch

1- kurs, O'zDJTU

Xo'jamova Yulduz

O'qituvchi, O'zDJTU

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini yanada yaxshilashda zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashda dasturilamal bo'lmoqda. Bu sohada zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning samaradorligini oshirishni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'rinib turibdi tilga bo'lgan talab bir necha yillar oldin boshlangan. 2021-yil 1- сентябрьдан boshlab xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini ta'sis etildi. Chet tillarni o'qitishning sifatini oshirish va yanada samarali usullarini ta'lim jarayoniga tadbiq qilish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy- tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, ilmiy salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Mamlakatimiz ta'lim tizimida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, chet tillarni o'qitishda nutqiy muloqotga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni yorituvchi va informatsion texnologiyalar bilan jihozlangan darsliklar, o'quv-qo'llanmalarni yaratish va o'quv jarayoniga joriy etib, xorijiy til ta'limini yanada takomillashtirish milliy ta'lim dasturining asosiy maqsadidir. Shu nuqtai nazardan xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy o'qitish metodlari o'rniga butun dunyoda ustuvor yo'nalish sifatida tan olinayotgan kommunikativ ta'lim metod va usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda olib borilayotgan filologik va linvodidaktik tadqiqotlarga tayanib ish olib borish yaxshi samara beradi.

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshib

bormoqda. Bir necha yillar oldin rus tilini o'rganishga talab katta bo'lgan bo'lsa, ayni damda ingliz tili bu o'rinni egallamoqda. Keyingi yillardan esa koreys va xitoy tiliga talab oshmoqda. Bu tillar o'rtasidagi o'zaro “poyga” nimaga qarab belgilanadi?. Albatta, davlatlar o'rtasidagi xalqaro aloqalar, eksport, import masalalari va xalqaro ishlardagi vazifasiga qarab belgilanadi. Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan - el biladi» kabi purmano so'zlari, Avaz O'tarning til o'rganishga bo'lgan davatidan ham, til bilgan insonning mavqeyi qay darajada bo'lishini bilib olishimiz mumkin. Chet tilini o'rganishda , albatta, ko'p qiyinchiliklarga duch kelamiz. Misol uchun, chet tili darslarida savol - javoblarda, yoki biror mavzuni prezentatsiya qilayotganda talaba nutqida beihitoyor o'z ona tilisini qo'llaydi.

- Cheklangan o'quv muhiti- faqat o'qituvchi bo'lganda chet tildan foydalanish qolgan paytlarda o'z tilida gaplashish.
- Chet tilini o'rganishda talaffuzga(pronunciation) e'tibor bermaslik.
- Jiddiy yondashmaslik- faqat grammatikaga bog'lanib, til ko'nikmalarini rivojlantirmaslik.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin, chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Til o'rganishda ko'p muammolar bor, lekin shunga mos samarali yechimlar ham bor.

Xulosa qilish kerakki, til o'rganishda o'qituvchilarning roli katta. O'quvchilarga motivatsiya berish, darsga qiziqish uyg'otish asosiy o'rin egallaydi. O'qituvchi o'z ustida ishlashi va talabalar uchun til o'rganishda yangi metodlarni yaratishi kerak.

Ta'lim sifatini ta'minlashda eng asosiy omil o'qituvchilar kasbiy mahoratidir. Ta'lim sifati o'qituvchi sifatidan yuqori bo'lolmaydi, o'qituvchining qo'liga tom ma'noda millat taqdirini yaratish berilgan bo'lib, ularni doimiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy mahoratini rivojlantirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash zarur.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir. Ta'lim va texnologiya bugungi davrda bir-birini to'ldirib boradi, albatta to'g'ri yo'lda foydalanilsa

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali
2. M.R.Otaboyeva “Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi”
3. <http://marifat.uz>
4. Ziyatova, N., Nurmuhamedova, N., & Xakimbayeva, O. K. (2022, July). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IBORALI QO'SHMA SO'ZLAR YASALISHIDA METONIMIYANING O'RNI. In Международная конференция академических наук (Vol. 1, No. 24, pp. 39-42).